

# BRIFING



## BRIFING

Termiz shahar hokimi o'rinbosari Zokir Meyliev ishtirokida brifing o'tkazildi.

Mavzu: Shaxarda keksalar va nuroniylarni xar tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati.

Brifingda hokim o'rinbosari quyidagi fikrlarni bildirdi.

Xozirgi kunda Termiz shahrida 37 ta mahalla fuqarolar yig'ini mavjud bo'lib, ularda istiqomat qilayotgan pensionerlar 13137 nafar, shundan ayollar 7032 nafari, front ortida qatnashganlari 60 nafar shundan ayollar 21 nafar, 412 nafar avg'on urushi qatnashchilari, 5739 nafar keksalar, shundan ayollar 3091 nafari, 881 nafar nuroniylar, shundan ayollar 439 nafari, 383 nafar faxriylar, shundan ayollar 142 nafari, 84 nafar yakka yolg'iz keksalar, shundan ayollar 63 nafari, 103 nafar o'zgalar parvarishiga muxtoj keksalar shundan ayollar 68 nafari hamda 1200 nafar 1-2-3-guruh nogironlari shundan ayollar 632 nafari tashkil qilib kelmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar zamirida xalq farovonligi, yurt taraqqiyoti, yoshlarning porloq kelajagini ta'minlash kabi ezgu maqsadlar mujassam.

Ayniqsa nuroniylarga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani muhtaram Prezidentimizning ularga bo'lgan alohida g'amho'rligidan dalolatdir.

Shaharda keksalar va nuroniylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ravishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan, Nuroniylarga "Keksalar haftaligi"ga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risidagi 2021 yil 16-sentyabrdagi 158-sonli bayoniga asosan Termiz shahar Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi "Namuna" MFY xodimlari tomonidan "Inson taftini inson oladi" shiori ostida barcha mahallalarda uyida yotib qolgan keksalar xolidan xabar olinmoqda. Haftalik doirasida yaqindagina Termiz shahar Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi, tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo'limi va Termiz shahar 5-sonli Oilaviy poliklinikasining tibbiyot mutaxassislari bilan hamkorlikda "Amu-Sohillari" mahallasida yashovchi o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va nogironlarni chuqurlashtirilgan bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazildi va dori-darmon vositalari bilan ta'minlandi. "Keksalar haftaligi" munosabati bilan Termiz shahrining keksa nuroniy, faol otaxon va onaxonlar Surxondaryo viloyati musiqali drama teatrda taniqli Dramaturg Xoliq Xursandovning "Muhabbatim-qismatim mening" nomli sahna asarini tomosha qilib maroqli hordiq olishlari uchun teatrga olib borildi.

Surxondaryoda bir guruh nuroniylarga "Mehnat faxriysi" ko'krak nishonlari topshirildi. Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov Prezidentimiz tomonidan ta'sis etilgan "Mehnat faxriysi" ko'krak nishonlarini o'z egalariga topshirdi.

Tadbirda ta'kidlanganidek, "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan turli sohalarda ko'p yillar davomida halol va samarali mehnat qilgan nafaqa yoshidagi faxriylar, oilalarni mustahkamlash, yoshlarni ona Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shayotgan nuroniylar munosib taqdirlab kelinmoqda. Har keksadan bir naql eshitsak va uni hayotga qo'llay olsak, yurtimiz farovon, hayotimiz osuda kechishi bor gap. "Keksalar haftaligi" tadbirlari doirasida o'tkazilayotgan har kungi tadbirlardan faxriylarimiz juda mamnun.

"Ehtirom, e'zoz, e'tibor" shiori ostida faol nuroniylarimizni muqaddas qadamjolarga Sherobod tumanidagi "Abu Iso at-Termiziy" Termiz tumanidagi "Al-Hakim at-Termiziy", Termiz shahridagi "Kokildor ota", "Sulton-Saodat", "Qirqqiz" maqbaralariga ziyoratgohlarga olib borildi.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish, ayniqsa, yolg'iz keksalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarga har tomonlama ko'mak berish, jamiyatimizdagi qator ijtimoiy va maishiy muammolarni bartaraf etishda nuroniylarning bilim va boy hayotiy tajribasidan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda.

Ayniqsa, keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligini oshirish, ularga hurmat-e'tibor va mehr-oqibat ko'rsatish, salomatliklarini asrash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash maqsadida so'nggi yillarda davlatimizning mavjud me'yoriy-huquqiy bazasi yanada takomillashib, qator qonunchilik hujjatlari ishlab chiqildi. Termiz shahrida

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi tomonidan "Xorazm" shahriga sayohat tashkillashtirildi. Sayoxat chog'ida 45 nafar nuroniy otaxonlar va onaxonlar juda ajoyib taassurotlar bilan qaytishdi.

Hadislardan birida "Savob ishni har kim, har kun qilishi kerak" deyilgan. Darhaqiqat, ezgulik inson umrini bezaguvchi amallardan biri sanalib, yaxshilik doim o'zi bilan mehr va muhabbatni ergashtirib yuradi. Termiz shahar "San'at saroyi"da O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston xalq artisti Maxmud Nomozovning kontsert dasturiga "Keksalar turizm oyligi" munosabati bilan Termiz shahar hokimligi tomonidan 60 nafar nogironligi bo'lgan, ijtimoiy ximoyaga muxtoj, mahalla faollari, xoji onalar keksa nuroniylarga xayriya kontsertiga taklif etildi.

Inson umrini albatta uning yoshi emas, balki hayot mazmuni hisoblanmish el va yurt ravnaqi yo'lida qilgan mehnati bezaydi. 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan Termiz shahar hokimligi tomonidan 20 nafar yakka yolg'iz keksalar ijtimoiy ximoyaga muxtoj nuroniy onaxonlarimizning xolidan xabar olinib esdalik sovg'alari berildi.

So'nggi yillar mobaynida yurtimizda yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordamni kuchaytirish bo'yicha ham ulkan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yurtboshimiz rahnamoligida inson qadr-qimmatini va sha'nini ulug'lash, manfaatlarini himoya qilish bo'yicha amaliy islohotlar olib borilishi xalqimizga xos insoniy fazilatlarining eng yuksak namunalaridan biridir. Keksalarni qadrlash, ularga hurmat-e'tibor ko'rsatish borasida bizning xalqimizdek bag'rikeng, mehr-muruvvatli xalq bo'lmasa kerak.